

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOiy ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARINING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

SOCIAL-MORAL ANALYSIS OF UMAR SUHRAVARDI'S WORK "AVORIF UL-MAORIF"

Murtozayev Shahobiddin Bakhridinovich

Bukhara State Pedagogical Institute

Senior Associate Professor (PhD) of the Department of Social Sciences

Abstract. The article analyzes the philosophical views of Abu Hafs Umar Suhrawardi, one of the major representatives of the doctrine of mysticism and Eastern philosophy, founder of the tarikat "Suhrawardiyya", on the basis of the treatise "Awarif ul-maarif" (Teachings of Enlightenment). The work also covers the description of the lust, souls, sciences, reason, ingenuity of the sufi scholar, the role of his moral ideas in human perfection.

Keywords: Suhraward, "Awarif ul-maarif", matter of morality, decency, travel, journey, Human Ego, Spirit, narration and reason, istidlal, ahli Tawhid, mukoshafa, ilmu ladun, ilmu yaqin, aynul yaqin, haqqul yaqin, worldly mind, worldly soul, material world, animal spirit, sufism.

UMAR SUHRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI

Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich

Buxoro davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada tasavvuf ta'limoti va Sharq falsafasining yirik vakillaridan biri, "Suhravardiylik" tariqatining asoschisi Abu Hafs Umar Suhravardiyning falsafiy qarashlari "Avorif ul-maarif" (Ma'rifat tuhfalari) asari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, asarda mutasavvifning nafs, ruh, ilm, aql tushunchalarining tavsiflanishi, axloqiy g'oyalarining inson kamolotidagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Suhraward, "Avorif ul-maarif", axloq masalasi, odob, sayr, safar, insoniy nafs, ruh, naql va aql, istidlol, tawhid ahli, mukoshafa, ilmu ladun, ilmu yaqin, 'ayn ul yaqin, haqqul yaqin, dunyoviy aql, dunyoviy ruh, moddiy dunyo, hayvoniy ruh, tasavvuf.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N31>

Kirish. Jahon xalqlarining ma'naviy axloqiy qiyofasini shakllantirishda Sharq xalqlari falsafiy tafakkuri alohida o'rin tutadi. Sharq mutafakkirlari, xususan Suhravardiyning antropologik ta'limoti, unda inson borlig'ini chuqur tahlil etilishi fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jahonda yuz berayotgan globalashuv jarayonida "ommaviy madaniyat" va "axloqiy nigilizm" kabi illatlarga qarshi kurashda Suhravardiyning ilmiy merosi nazariy-metodologik, g'oyaviy-mafkuraviy, diniy-ma'rifiy jihatdan ahamiyatlidir.

Tasavvufning mashhur tariqatlaridan biri — suhravardiya tariqatining asoschisi Shihobuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad as-Suhravardiy 539-hijriy yili, sha'bon oyining birinchi kuni Eronning Jibol viloyati, Zanjon tumanining Suhraward qasabasida dunyoga keldi. Bu sana milodiy 1145-yilning 27-yanvariga to'g'ri keladi. U boshlang'ich ta'limni o'z yurtida

olgach, amakisi va tariqatdagi murshidi bo'lmish Abu Najib as-Suhravardiy bilan Bog'dodga boradi va u yerda ilm tahsilini davom ettiradi. Keyinchalik talabalarga dars berish va xalqqa va'z – nasihat qilish natijasida mashhur bo'lib ketadi. Zamondoshlari uni "Shayx ush-shuyux", "Shayx ul-islom", "Shayx ul-Iroq"[1] nisbatlari bilan ulug'langan .

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Suhravardiy tarixning eng ziddiyatli davrida yashab ijod qilgan alloma bo'lib, ushbu ziddiyatli davrning ijtimoiy tafakkur shakli bo'lgan tasavvuf ta'limotining yorqin namoyandasi darajasiga ko'tarilgan va o'zining chuqur falsafiy ma'noli tafakkur ilmini yaratgan. Bugungi kunda ushbu ilm insoniyat uchun to'g'ri yo'ldan adashmaslikda yoki o'z yo'lini topa olishda xizmat qila oladi. Shu nuqtai nazardan allomaning "Avorif ul-maorif" ("Ma'rifat tuhfalari") asari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu asar yurtimizda hali o'rganilmagan[2;304]

Suhravardiyning "Avorif ul-maorif" asari uning nomini abadiyatga muxirladi. "Avorif ul-maorif" asari tasavvuf tariqatlari vujudga kelishi, shakllanishning ilk davrida yozilgan tasavvufga bag'ishlangan ilk manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu kitobdan avval ham tasavvufga bag'ishlangan bir qator asarlar ham mavjud bo'lib, bular Kalobodiyning so'fiylik to'g'risidagi eng qadimgi va ilk asarlardan biri bo'lgan "At-Ta'arruf li-mazhab ahl at-tasavvuf" ("Tasavvuf ahli yo'lini tanishtirish") nomli asari Abu Tolib al-Makkiy "Qut al-Qulub" (Qalblar ozig'i), Qushayriyning "Ar-risola"si, G'azzoliyning "Ihyo ulumi-d-din [3;25]" ("Din ilmlarini jonlantirish") singari asarlari sunniy tasavvuf haqidagi tushunchalarni tartibga solish va uni tizimlashtirish maqsadida yozilgan. Uslubi va mavzular bo'yicha Abu Homid G'azzoliyning "Ihyo ulumi-d-din" asari shunga o'xshash bo'lsa-da, "Avorif ul-maorif"asari keng ko'lamli emas. Umar Suhravardiy "Avorif ul-maorif"da tasavvuf uni amallar jihati va shariat chizig'idan ko'ra tafakkur jihati ko'proq qiziqtirardi alloma ushbu kitobida so'fiy fikrini tushuntirishni maqsad qilgan [4;103] Asar so'fiylar odob-axloqi normalari haqidagi kitobdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimli yondashuv, retrospektiv tahlil, mantiqiylik va vorisiylik, dialektik, germeneytik, qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. "Avorif ul-maorif"asari turli xil mazhablardagi tariqat yo'lini tanlagan so'fiylar o'qigan, ular birgalikda tahsil oladigan madrasa, xonaqohlardagi eng sevimli kitoblardan bo'lgan [5;398]. Suhravardiy sayri suluk (So'fiylarning shaxsiyati muammosi) so'fiylik yo'li (tariqat)ning va bu yo'ldan o'tish yo'li (sayri suluk) o'rta asr tasavvuf namoyandalarining ta'limotida muhim o'rin tutadi. Suhravardiyning so'fiylik ta'limotida bu masalani o'rganish uning dunyoqarashini aniqlashda katta o'rin tutadi.

Suhravardiy "Avorif ul-maorif" asarini yozish sababini quyidagicha asoslaydi so'fiylar toifasining shon-sharafi, sunnat tamoyillariga amal qilinishi, davlatning mustahkamligini ta'minlaydi.

Umar Suhravardiyning ta'kidlashicha: Alohning marhamati bilan ushbu asarni yozishga kirishar ekan. So'fiylarning go'zal, xulq va ahloqlarini keng ommaga namoyon oshkor etishdir. Chunki men deb ta'kidlaydi alloma, so'fiylarning qilgan ishlari haqiqat ekanligiga ishonaman ular hamma zamonlarda aniq bilimlarga muvofiq harakat qilganlar va buni men ushbu asar orqali hammaga oshkor qildim.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Suhravardiy asarini so'fiylarni soxta narsalardan asrash uchun yozganligini ta'kidlaganida, so'fiylik yo'liga bo'lgan talabni ikkinchi sabab sifatida keltirib, ushbu "Avorif ul-maorif" (Ma'rifatni anglaganlar) asari orqali ushbu toifa vakillarini ko'payishi haqida ta'kidlaydi.

“Avorif ul-maorif” asari 63 bobdan iborat;

Asar asosan tasavvuf gnoseologiyasi, odob-axloqi, psixologiyasining amaliyotiga bag'ishlangan;

Asarda tasavvuf tarixi, nazariyasi va amaliyotiga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud;

Asar o'z tuzilishi va mazmuniga ko'ra tasavvuf nazariyasiga bag'ishlangan.

Asar ilmiy tahlil qilganda, boblar soni va ularning nomlanishidan shu narsa ayonlashadiki, Umar Suhravardiy o'zining ma'naviy me'rosida Qur'on va islom shariatiga asoslanadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, boblar sonining 63 ta ekanligi Payg'ambar yoshiga ishora bo'lgan bo'lishi ehtimoldan yiroq emas, chunki Shihobiddin Suhravardiyning hazrat Rasulullohga (p.) sadoqati, ixlosi juda baland bo'lgan. *(ta'kid bizniki – M.Sh).*

Asardagi 63-bobni asosan beshta umumiy qismga ajratish mumkin bo'lib bular quyidagi bo'limlardan iborat[6;5a]:

1. 1-9. Boblarida so'fiy, so'fiylik, tasavvuf, mutassavuf, mutashabbeh, malomatiylik kabi tushunchalarni mohiyatini ochib berishni o'z ichiga oladi.
2. 10-28. Boblarida tasavvuf ahli to'planadigan maxsus joylar, manzillar va amaliyotlar haqida hikoya qiladi: Mashoyix, hodim (murid), rabot odobi, safar, Mutasabbib (sababga bog'langan), Fath (sirlarning ochilishlari), Simo'ni (ovoz chiqargan holda trans holatga kirish), chilla v.h.
3. 29-30. Boblarda axloq bilan bog'liq: kamtarlik, halollik va hokazo.
4. 31-55. Boblar eng katta qismi bo'lib, bunda so'fiylar axloq-odobi (yetika-yestetikasi) simo', chilla, qurb (ollohga yaqinlashish), tahorat, namoz, ro'za, ovqatlanish, ibodat, uyqu odoblari, murid, shayx, suhbat va birodarlik odoblari to'g'risida fikr yuritilgan.
5. 56-57. Boblarda esa insonni anglash, so'fiylarning mukoshafasi (kash qilish) o'y fikrlarni anglash haqidadir.
6. 58-63. Boblarda esa hol va maqom, ishora qilish, bidoyat va nihoyatlar to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Asarda ta'kidlanishicha insonning yaratilishi, mohiyati, nafs va ruhi, insonda bor bo'lgan aql malakasi va juda ahamiyatli bir jihat sifatida o'ziga ato etilgan qalbi, ahli tasavvufning inson sarlavhasi ostida bahslashilgan mavzulardandir.

Inson so'zi ko'z qorachig'i ma'nosida kelgan arabcha asosli bir so'zdir. Unutmoq so'zidan hosil qilingani ham manbalarda qayd etilgan[7;119,120]. Suhravardiy ham inson so'zining ko'z qorachig'i ma'nosida kelishidan insonning yaratilishi va qadr-qiymati bog'lamida Alloh taoloning insonni nozik hikmati tufayli yaratganini, uni sharaflig'i va mukarram qilib nazargohi ilohiy va tajalligohi vahyi samoviy qilganini va bu shaklda uni ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan osmonlarning va yerning ko'z qorachig'i qilganini tushuntiradi.

Suhravardiy insonni osmonlarning va yerni o'zligi va xulosasi ekanligini bildiradi. Bu ma'noda Suhravardiy insonni olami sug'ro sifatida tavsiflagan so'fiylar bilan ayni fikrga ega.

Suhravardiy insonning nafs va ruhdan tashkil topgan bir borliq ekanligini ifodalab, vujudning qorindan past nafsning markazi va hududi, qorindan yuqori qism esa ruhning hududi va samoviy asrorning xazinasi ekanligi haqida so'z yuritadi.

Suhravardiy insonni tahlil qilayotganda klassik tasavvufiy qarash bilan parallel ravishda fikrlaydi. Inson nafs vositasida sufliy olam bilan aloqada ekan, ruhi bilan ulug' olamning bir parchasidir. Bu ikki xususiyatni o'zida jamlashi natijasida hayvonlar va maloikalardan farqlanadi.

Bu ma'noda hayvonlarning faqatgina nafsdan iborat bo'lib ruhoniylarining taraflari ilohiy ruh ma'nosida yo'q ekan, muloika esa tamoman ruhoniylar borliqlar sifatida nafsdan mahrum qoldirilgan. Insonda esa bu ikki jihat barcha vasflari bilan mavjuddir. Bu ikki jihat insonda doimiy kurash holatidadir.

Suhravardiyga ko'ra insonning yaratilish sababi ikki dunyoning (dunyo va oxirat) ma'murligidir. Insoniy ruh oliy samoviy bo'lib, u amr olamidandir. Hayvoniy bashariy ruh esa xalq olamidandir. Hayvoniy bashariy ruh oliy samoviy ruhning joylashadigan joyidir.

“Alloh taolo Odamni doraynni (oxirat va dunyoni) ma'mur qilish uchun yaratgandir. Allah taolo undan jannatni ma'mur qilishini istaganidek, dunyoni ham ma'mur qilishini istagandir[6-68b]. deb bu mavzudagi fikrini izohlaydi”.

Tasavvufiy terminologiyada ilmi ladun tushunchasi g'aybiy ilm, ilohiy sirlarni anglash ilmi ma'nolarida qo'llangan. Ilmi ladunni mutasavvufilar bandaga Allah tomonidan vositasiz o'rgatilgan xususiy bir ilm deb tushunadilar. Laduniy ilm Allohning valiylariga ilhom yo'li bilan lutf etgan ilmdir.

Mutafakkik ilm va nafs masalasiga quyidagicha yondashadi. Mutasavvufilar barcha ilmlarning Allah huzuridan kelganiga ishonishadi. Ammo shar'iy va zohiriy ilmlar farishta va rasul vositasida keladi. Ilhom esa bevosita Haqdan keladi. Shuning uchun ilhomga ilmi ladun deyilgan. Bu ilm, ma'lum bir shaxsga xos mahram bir ilmdir[8;393].

Suhravardiy ilmi ladunga ega bo'lishning sharti sifatida kishining nafsini ustidan g'alabasini va nafsiga qarshi husni muomalasini ko'rsatadi. “Darveshning qadri nafsiga qarshi kurashi bilan o'lchanadi. Darvesh nafsini ustidan g'alabasi va unga qarshi kurashidagi husni muomala vositasida “ilmi ladun”ga noil bo'ladi. Buning soyasida fazilatga erishib, aqlidan foydalanish imkonini qo'lga kiritib eng oson yo'lni topadi[6;53a]”.

Ko'rilganidek Suhravardiy kishining nafsini tozalab uning ustidan g'olib kelishini o'ziga laduniy ilm eshiklarini ochishini fikr qiladi. Nafsga husni muomala esa uning oxirat kunida jazolanadigan ishlardan uzoq bo'lishini ta'minlash va uni xayrli amallarga yo'naltirishdir.

Suhravardiy nafsga hokim bo'lishning yo'llarini tushuntirib, yana ilmi ladun mavzusini kun tartibiga qo'yadi. Xilvatga kirgan bir solikning qirq kun mobaynida bo'sh me'da bilan ovqatlanmay zikr va fikr bilan mashg'ul bo'lishi nafsni nazorat qilishida muhim omil bo'lishini va bu orqali solikka ilmi ladunning eshiklari ochilishini ma'lum qiladi.

Suhravardiy jiddiy bir shaklda laduniy ilmning amalga bog'liq ekanligini va bir qancha ehson bo'lmasdan zuhur qilmasligini ifodalaydi. “Agar murid doim Qur'onni o'qib, qalbi va tilini bir tutsa, nafsining e'tirozlariga mone' bo'ladi va solik osonlik bilan Qur'onni qiroat qilib, namoz o'qishni boshlaydi. Tilovat va namozdagi bu suhulat ko'ngilni nurlantiradi. Kalomi ilohiyni nuri javhar sifatida qalbda o'rin olganidan Qur'on tilovati zoti Ilohiyni zikri darajasida bo'ladi. Allohning kalom sifati buyukligining mushohada bilan kalomi ilohiyni nuri qalbda to'planadi. Bunday ilohiy darajalar bo'lmasdan bandaga ladun ilmi eshiklari ochilmaydi[6;71b]”. Demakki, ilmi ladun osonlikcha qo'lga kiritiladigan bir ilm emas. Laduniy ilm haqida bilgan barcha ma'lumotimiz bu ilmning avvaliyat bilan payg'ambarlardagi va oz miqdorda bo'lsada nasiblangan valiy bandalardagi turli belgilardan iboratdir. Bu ilmning mutlaq haqiqati Allah taoloni huzurida ekanligidan, uni tom ma'noda anglay olish idrok chegaralarimizdagi bir ruhiyatdir.

Tasavvufda yaqin[9;137b] tushunchasi maqom sifatidagi yaqindan farqli tarzda ilm bilan aloqadorligi jihatidan yondashilganda yaqinning uch turi borligi aytiladi. Bu turlar esa

ilmul yaqin, 'aynul yaqin va Haqqul yaqin sifatida Qur'onda ham tilga olingan tushunchalardir. Suhravardiy yaqinning klassik ma'noda uchga bo'linishi fikriga qo'shiladi. U ilmul yaqin nazar va dalil yo'li bilan, 'aynul yaqin kashf va ilhom yo'li bilan, haqqal yaqin esa insonning bashariy vasflardan ayrilishi va vuslat istaganlarning bu darajaga erishuvi bilan qo'lga kiritiladi deb bu yaqin ilmi turlarining tahsil usulini izohlaydi.

Suhravardiy aqlning ta'rifini "Aqlga kelsak, u ruhning tili va basiratning tarjimonidir. Ruh uchun basirat uning qalbi, aql esa uning tili o'rnidadir"[6;147a] shaklida izohlaydi.

Yana Suhravardiy inson o'zligini aql ekanligini aytib, farqli ta'rif ham bildirgan.

"Hamma narsaning o'zi, o'zligi bordir. Insonning o'zligi aql, aqlning o'zligi esa sabrdir." Degan[6;159a].

Ko'rilganidek, Suhravardiy aqlni falsafiy ma'noda ta'rif bilan emas, insonning mas'uliyati bog'lami bilan izohlash tarafdoridir. Insonni mas'uliyat ostida tutuvchi va hisobga va iqobga yuzlashtiruvchi xususiyati aqlidir. Bu ma'noda insonni boshqa mavjudotlardan farqlovchi jihat ham bu mas'uliyatli bo'lishdir. Insonning inson bo'lishi esa mas'uliyatli bo'lish potensialiga ega bo'lishiga aloqadordir. Bu potensial esa aqlidir. Suhravardiy aqlning ta'rifini falsafiy ma'noda ham izohlaydi va aql jilolanuvchi javhardir deb aqlga ta'rif beradi.

"Sufiylarning eng buyuklaridan biri bo'lgan Xoris al-Muhosibiy (v. 243/857) shunday deydi: "Aql ilmlarning o'zi bilan idrok qilinadigan bir tabiatdir"[6;147b].

Bularni ifodalaganidan so'ng Suhravardiy o'z qarashini shu shaklda izohlaydi: "Aql ulviy bo'lgan insoniy ruhning javhari, uning tili va yo'l ko'rsatuvchisidir"[6;147a].

"Aql ruhning tilidir. Chunki ruh Allohning amridandir. Aqlning nuri ruhdan fayz oladi. Ilmlar ham aqlning nuri bilan o'rganilishi mumkin. Aql ilmlarga ko'ra yozuv taxtasi hukmidadir"[6;147b].

Ko'rilganidek Suhravardiy aqlni ruhning tili sifatida ta'riflaydi. Ruh Allohning amridandir va omonati uzmoni muhofaza qilish vazifasini o'z zimmasiga olgan. Aqlning ruhdan fayz olishini keltirgan Suhravardiy ilmlarning faqatgina ruhdan fayzlangan nuri bilan o'rganilishini ifoda etadi.

Aql ruh bilan birga borliq va kishilikka erishadi. U bilan ashyo ustida hujjat keltirishi mumkin. Agar ruh bo'lmasa, aql o'tmaslashib, hech qanday narsaning qarshisida yoki yonida dalil keltirolmas edi". Xulosa qilib aytadigan bo'lsak aql faqatgina ruhning borlig'i bilan mavjud bo'ladigan malakadir. Agar ruh bo'lmasa, aql o'tmaslashadi va har qanday narsa ustida hukm va hujjat keltirolmas edi. Aql ruh bor bo'lmasdan kishiga to'g'ri va xatoni ko'rsatolmaganidek qarshilik bildirish yoki tarafini olish uchun dalil ham keltirolmaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosalar o'rnida shuni ta'kidlash lozimki Haq va inson o'rtasida yagona substansiya mavjud bo'lib, inson o'zligini bilib borishi orqali Xudoni tanishi ta'kidlanadi. Suhravardiy o'z asarlarida inson, uning zohiriy va botiniy olamini tadqiq etgan, uning tabiati va intilishlarini kuzatgan, ularga doir muammolarning yechimlarini kishilarning diniy e'tiqodi, tafakkur tarzidan kelib chiqqan holda sodda, ravon va xalqchil usullarda ishlab chiqqan. Insonning iymon gavhari, buyukligi barobarida, nuqsonlar – nafsi, hirs oqibatida kelib chiqadigan yomon illatlarni tahlil etib, bulardan qutulish, forig'lanish yo'llarini ko'rsatib bergan. Shihobiddin Suhravardiy ilmiy-ma'naviy merosiga nisbatan turli bir-biridan farq qiluvchi, ba'zan noxolis qarashlar ham mavjud bo'lib, ularga falsafaning milliylik va umuminsoniylikning dialektik aloqadorligi metodologiyasi nuqtai nazaridan yondashmoq zarur, Suhravardiyning inson ma'naviy kamoloti haqidagi konseptual-nazariy ta'limoti tarixiy

voqealar, kundalik turmush haqiqatlari, xalq ogʻzaki ijodi durdonalari asosida badiiy timsollarda ifodalangan va shariat inson uchun kishan deb emas, balki komil insonni tarbiyalashda muhim asos va vosita deb qaralgan. Suhravardiyning inson maʼnaviy kamoloti masalasidagi konseptual yondashuvi oʻzigacha mavjud boʻlgan konsepsiyalarning yuksak darajada qayta ishlangan sintezi hamda oʻzidan keyin vujudga kelgan taʼlimotlarning fundamental manbai boʻlib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Алишер Навоий. Тоʻла асарлар тоʻплами 6-жилд. Т.: F.Фуллом, 2013.
2. Oʻzbekiston milliy axborot agentligi – OʻzA ilm-fan boʻlimi (elektron jurnal) ilmiy nashr 2021 yil may oyi soni 304-bet
3. Усмон Турар “Тасаввуф тарихи”-Т.: Истиқлол, 1999 й 25-бет
4. Reynold A. Nicholson, “Avarif”, Encyclopedia of Religion and Ethics, Kessinger Publishing, 2003, c. III, s.103;
5. Avârif'in Çiştîyye'ye etkisi için bkz: Nizami, K.A., “Feridüddin Mes'ud”, TDVİA, İstanbul 1995, c. XII, ss. 398.
6. 6 عوارف المعارف. شهاب الدين سهروردی. Н Бухоро давлат музей-қо'риқхонаси, Нужжатлар фонди 21125/11. 5а бет.
7. Abdalbâki, Mu'cemu'l-Müfehres, ss. 119-120.
8. Uludağ, Süleyman, Tasavvuf Terimleri, s. 245; Cebecioğlu, Ethem, TTDS., s. 393
9. Yavuz, Yusuf Şevki, “İlme'l-Yakîn”, TDVİA, İstanbul 2000, c. XXII, ss. 137-8.
10. Baxriddinovich, Murtozayev Shahobiddin. "SOUL AND LUST (Based on Abu Hafs Umar Suhrawardi's work "Awarif ul-marif")." International Conference on Research Identity, Value and Ethics. 2023.
11. Baxriddinovich, M. S. (2023). SHIHABIDDIN SUHRAWARDY'S VIEWS ON ETHICS. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(16), 11-16.
12. Baxriddinovich, M. S. (2022). SHIHABUDDIN AL-SUHRAWARDI'S VIEWS ON SUFISM AND HIS SCIENTIFIC HERITAGE IN CENTRAL ASIA. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(6), 110-116.
13. Baxriddinovich, M. S. (2024) The Scientific Heritage of Shihobiddin Suhrawardi ang His Role In Philosophy and Sufism. Buletin Antropologi Indonesia ISSN 3046-4722 Volume:1, Number 4, 2024, Page:1-9
14. Murtozayev. Sh.B. Shihobuddin Suhravardiy qarashlarida nafsni tiyish, kamtarinlik, fazilatlarining talqini. Pedagogika va Psixologiya ilmiy-metodik jurnal.ISSN 2992-8966 (Online) 2024-yil 1-son noyabr. B. 58-71.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).